

ZAMONAVIY MUSIQA TA'LIMI: YANGICHA YONDASHUVLAR VA METODLAR

Turdiboyeva Moxlaroy Adashbek qizi

Namangan davlat pedagogika instituti talabasi

Annotatsiya: Mazkur maqolada zamonaviy musiqa ta'limalda qo'llanilayotgan innovatsion yondashuvlar va metodlar tahlil qilinadi. Xususan, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, interaktiv usullar, integratsiyalashgan darslar hamda ijodiy va reflektiv o'qitish metodlarining musiqiy savodxonlikni oshirishdagi o'rni yoritilgan. Shu bilan birga, o'quvchilarning musiqaga bo'lgan qiziqishini oshirish, individual yondashuv va ijtimoiy-emotsional rivojlanishini qo'llab-quvvatlovchi pedagogik strategiyalar ko'rib chiqiladi. Tadqiqot natijalari zamonaviy musiqa ta'limalining samaradorligini oshirishda yangi metodik yondashuvlarning dolzarbligini tasdiqlaydi.

Kalit so'zlar: zamonaviy musiqa ta'limi, innovatsion metodlar, interaktiv o'qitish, ijodiy yondashuv, musiqa pedagogikasi, musiqiy savodxonlik, o'quvchiga yo'naltirilgan ta'lim

СОВРЕМЕННОЕ МУЗЫКАЛЬНОЕ ОБРАЗОВАНИЕ: НОВЫЕ ПОДХОДЫ И МЕТОДЫ

Турдибоева Мохларой

Студент Наманганского государственного педагогического института

Аннотация: В статье анализируются инновационные подходы и методы, используемые в современном музыкальном образовании. В частности, подчеркивается роль информационно-коммуникационных технологий, интерактивных методов, интегрированных уроков, творческих и рефлексивных методов обучения в повышении музыкальной грамотности. При этом рассматриваются педагогические стратегии, повышающие интерес учащихся к музыке, способствующие индивидуальному подходу и социальному-эмоциональному развитию. Результаты исследования подтверждают

актуальность новых методических подходов в повышении эффективности современного музыкального образования.

Ключевые слова: современное музыкальное образование, инновационные методы, интерактивное обучение, творческий подход, музыкальная педагогика, музыкальная грамотность, личностно-ориентированное образование.

MODERN MUSIC EDUCATION: NEW APPROACHES AND METHODS

Turdiboyeva Mokhlaroy

Student of Namangan State Pedagogical Institute

Abstract: This article analyzes innovative approaches and methods used in modern music education. In particular, the role of information and communication technologies, interactive methods, integrated lessons, and creative and reflective teaching methods in improving musical literacy is highlighted. At the same time, pedagogical strategies that support students' interest in music, an individual approach, and socio-emotional development are considered. The results of the study confirm the relevance of new methodological approaches in increasing the effectiveness of modern music education.

Keywords: modern music education, innovative methods, interactive teaching, creative approach, music pedagogy, musical literacy, student-centered education.

Bugungi kunda ta'lif jarayonida yangicha yondashuvlar, interaktiv metodlar va raqamli texnologiyalarning joriy etilishi zaruratga aylangan. Xususan, musiqa ta'limi sohasida bu o'zgarishlar o'quvchilarning musiqiy didi, estetik tafakkuri va ijodiy salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. An'anaviy usullarni zamonaviy vositalar bilan uyg'unlashtirish orqali musiqiy savodxonlikni oshirish, dars jarayonini qiziqarli va samarali qilish imkoniyati tug'iladi.

Musiqa ta'limida o'quvchilarga nazariy bilimlar ham sodda metod va usullar orqali singdirilishi kerak. Nazariy bilimlarni egallamasdan amaliyatga o'tish qiyinroq kechadi. Ayniqsa musiqa ijrochiligidagi amaliy faoliyatgina o'quvchilarning har tomonlama rivojlanishga yordam beradi, ijtimoiy hodisalarga to'g'ri munosabatni tarbiyalaydi, tashabbuskor, ongli va faol bo'lishga imkon yaratadi. Shunday qilib, biz

musiqiy tarbiya metodlarini tanlashda - jonli kuzatuvdan abstrakt fikrlashga va undan nazariy bilimlarni o‘rganib amaliyatga qarab borishga tayanamiz. Maktabgacha yoshdagagi bolalarga musiqiy ta’lim va tarbiya berishning o‘zaro uzviy bog‘langan uchta metodi bor:

- 1) ko‘rgazmali metodi;
- 2) so‘zlab berish metodi;
- 3) amaliy faoliyat metodi.

Bu metodlarning har biri ma’lum tajriba xususiyatlardan kelib chiquvchi qator usullarni o‘z ichiga oladi. O‘rganish protsessida ulardan qaysi birini tanlash muayyan musiqa mashg‘ulotining aniq vazifasi, ijro etilayotgan musiqa materialining murakkabligi, o‘qitishning bosqichlari va bolalarning umumiylara taraqqiyot darajasi bilan belgilanadi. Bolalarga turli metodik usullardan foydalangan holda musiqaviy ta’lim-tarbiya berishda pedagog quyidagi qoidalarga amal qilish kerak.

- a) o‘quvchilarga tavsiya etilayotgan musiqa materialining badiiyligini va uning sifati ijrosini ta’minlash;
- b) muayyan bolalar jamoasining o‘ziga xosligini, uning umumiylari va musiqaviy taraqqiyot darajasi, uyushqoqligini hisobga olish;
- v) maktabgacha yoshdagagi bolalarning musiqani obrazli va aniq idrok eta olishini e’tiborga olish;
- g) asar mazmunini va musiqaviy ifoda vositalarini bolalar ongiga yetkaza bilish;
- d) bolalarni aktivlashtirish, ularning e’tiborini musiqa sadosiga torta bilish;
- e) ta’lim berish jarayonida bolalarda musiqaviy obrazni idrok etish qobiliyatini tarbiyalash.

1. Innovatsion metodlar va ularning ahamiyati.

Zamonaviy musiqa ta’limida qo’llanilayotgan innovatsion metodlar orasida loyiha asosida o‘qitish, muammo asosidagi o‘rganish, STEAM yondashuvi va reflektiv tahlil alohida o‘rin egallaydi. Bu metodlar o‘quvchining mustaqil fikrashi, muammoni hal qilish ko‘nikmalarini rivojlantiradi.

2. Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarining (AKT) o‘rni.

Multimedia vositalari, musiqiy dasturlar (masalan, GarageBand, Sibelius, Soundtrap), internet resurslari orqali dars o‘tish dars jarayonini nafaqat samarali, balki qiziqarli qiladi. O‘quvchilar musiqa yozish, tahrirlash va baham ko‘rish imkoniyatiga ega bo‘ladilar.

3. Interaktiv va integratsiyalashgan darslar.

Darslarda rolli o‘yinlar, guruqli ishlanmalar, sahnalashtirish, musiqiy viktorinalar va boshqa faol metodlar orqali o‘quvchining darsdagi ishtiroki faollashadi. Bunday darslar boshqa fanlar bilan integratsiya qilinib, masalan, tarix yoki adabiyot bilan uyg‘unlashtirilgan holda olib borilishi ham mumkin.

4. Ijodiy va emotsiyal rivojlanishga qaratilgan yondashuvlar.

Musiqa – bu faqat texnik ko‘nikmalar emas, balki his-tuyg‘ularni ifodalash vositasi hamdir. O‘quvchilarni improvizatsiyaga, o‘z kompozitsiyalarini yaratishga undash, ularda o‘ziga bo‘lgan ishonchni kuchaytiradi. Shuningdek, musiqa orqali emotsiyal muvozanatni saqlash, stressni yengish va ijodiy kayfiyat yaratish mumkin.

Bugungi globallashuv davrida ta’limning barcha sohalari singari musiqa ta’limi ham tubdan yangilanmoqda. Jamiyat ehtiyojlarining o‘zgarishi, texnologiyalarning rivojlanishi va ta’limga qo‘yilayotgan yangi talablar musiqiy tarbiya va ta’limga yangicha yondashishni taqozo etmoqda. Endilikda musiqa faqatgina estetik tarbiyaning bir vositasi emas, balki o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini, emotsiyal holatini va ijtimoiy ko‘nikmalarini rivojlantiruvchi muhim ta’limiy vosita sifatida qaralmoqda. Zamonaviy musiqa ta’limi quyidagi asosiy yo‘nalishlar asosida rivojlanmoqda:

- O‘quvchiga yo‘naltirilgan yondashuv – darslar o‘quvchining qiziqishlari, individual imkoniyatlari va ehtiyojlarini inobatga olgan holda tashkil etiladi.
- Texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish – multimedia vositalari, interaktiv doskalar, onlayn platformalar (YouTube, Soundtrap, Noteflight, va boshqalar) dars jarayoniga faol jalb etiladi.
- Ijodiy va tanqidiy fikrlashni rivojlantirish – musiqiy improvizatsiya, kompozitsiya, sahnalashtirish va tahliliy faoliyat orqali amalga oshiriladi.

Zamonaviy darslar o‘quvchining faolligini oshirish, darsda bevosita ishtirokini ta’minlashga qaratilgan. Bunda:

- musiqiy viktorinalar;
- guruhli loyihalar;
- rolli o‘yinlar;
- jonli musiqa tinglash va muhokama qilish kabi usullar qo‘llaniladi.

Zamonaviy ta’lim tizimi doirasida musiqa fani nafaqat estetik tarbiya vositasi, balki o‘quvchilarning ijodiy tafakkurini, hissiy-emotsional dunyosini va ijtimoiy moslashuvchanligini rivojlantiruvchi kuchli pedagogik resursga aylanib bormoqda. Shu nuqtayi nazardan qaralganda, musiqa ta’limida yangicha yondashuvlar va metodlarni joriy etish bugungi kunda dolzarb vazifa sanaladi. An’anaviy uslublarni butunlay rad etmasdan, ularni zamonaviy pedagogik texnologiyalar bilan uyg‘unlashtirish, ayni vaqtida o‘quvchilarning yosh xususiyatlari, individual qobiliyati va qiziqishlariga moslashtirilgan holda ta’lim jarayonini tashkil qilish eng muhim tamoyillardan biridir.

Innovatsion metodlar — xususan, loyiha asosidagi o‘qitish, muammo asosida o‘rganish, reflektiv yondashuvlar, STEAM integratsiyasi kabi metodlar — musiqa darslarini faollik, mustaqil fikrlash, tahliliy yondashuv va amaliy faoliyat bilan boyitadi. Bu yondashuvlar o‘quvchilarda nafaqat bilim va ko‘nikmalarni shakllantiradi, balki ularni musiqani tushunishga, his etishga, baholashga va ijod qilishga o‘rgatadi. O‘quvchi o‘zini faqat bilim oluvchi emas, balki musiqiy faoliyat ishtirokchisi sifatida his qilishi, o‘z ijodiy salohiyatini to‘laqonli ro‘yobga chiqarishi uchun sharoit yaratiladi. Musiqa ta’limida axborot-kommunikatsiya texnologiyalaridan (AKT) foydalanish ham o‘quvchilarning darsga bo‘lgan qiziqishini oshirish, ularni musiqiy madaniyat olamiga yanada faol jalb etishda muhim rol o‘ynaydi. Raqamlı platformalar yordamida musiqiy asarlarni tinglash, tahlil qilish, kompozitsiyalar yaratish, ijro etish, saqlash va baham ko‘rish imkoniyatlari kengaymoqda. Bu esa o‘quvchilarni musiqiy ijodiy jarayonlarga chuqur jalb qiladi va ularni texnologik jihatdan savodli shaxslar sifatida shakllantiradi.

Shuningdek, musiqa o‘qituvchisining kasbiy kompetensiyasi ham yangicha yondashuvlarni samarali joriy etishda asosiy omillardan biri hisoblanadi. O‘qituvchi faqat ma’lumot yetkazuvchi emas, balki o‘quvchini ilhomlantiruvchi, uni qo‘llab-quvvatlovchi va ijodga yo‘naltiruvchi shaxs bo‘lishi zarur. Bu esa doimiy o‘zini rivojlantirish, yangi metod va texnologiyalarni egallab borishni talab qiladi.

Xulosa qilib aytganda, zamonaviy musiqa ta’limi o‘z oldiga qo‘ygan asosiy maqsad — o‘quvchining musiqiy-estetik dunyoqarashini kengaytirish, ijtimoiy va madaniy jihatdan yetuk, ijodkor shaxsni shakllantirish vazifasini samarali amalga oshirishi uchun yangicha metodik yondashuvlar muhim omil hisoblanadi. Har bir pedagog o‘z amaliyotida zamonaviy talablarga javob beradigan, o‘quvchiga yo‘naltirilgan, texnologik quvvatlangan va ijodkorlikka undovchi ta’limiy modelni shakllantirishi lozim.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Қосимов Рифатилла Уд: Мусика ва санъат коллежлари ҳамда лицейлари учун дарслик. -Т. : F.Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашр., 2002.
2. Darvesh Ali Changiy. Risolai musiqiy. O’zR FA ShI-1, inventar № 468.
3. Tashmatova A. “Musiqiy cholq‘ular muzeyi katalogi” Toshkent.: “Fan” nashriyoti, 2006 y.
4. Umarov E., Pal I. Estetika. – Т., 1990.
5. Umumiyl o‘rta ta’limning milliy o‘quv dasturi. Musiqa madaniyati. Т.,-2021.
6. Yo‘ldosheva S.X. “O‘zbekistonda muzika tarbiyasi va ta’li mining rivojlanishi. Т., “O‘qituvchi”, 1985.
7. Kaxxarova Odina Nazirjonovna, UMUMIY O’RTA TA’LIM MAKTABLARIDA MUSIQIY TA’LIM SIFATINI OSHIRISH TAMOYILLARI, 29.09.2024.